

**KASB-HUNAR MAKTAB O'QUVCHILARINI ZARARLI ODATLARGA QARSHI
KURASH IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH**

**Djandullayeva Miyassar Saparbayevna
Qoraqolpog'iston Respublikasi Taxiatosh tumani kasb-hunar maktabi,
Yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinnbosari**

Annotatsiya

Maqolada kasb-hunar maktab o'quvchilarining zararli odatlarga qarshi kurash usul va vositalari bayon qilingan bo'lib, bunda shaxs kamoloti uchun oila, tarbiya va ta'lim tushinchalarining o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, tarbiya, globallashuv, huquqbuzarlik, ommaviy madaniyat.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham rivojlanishning mohiyati, uning sur'ati insonlarning ma'naviy kamoloti darajasiga bog'liq bo'lgan. Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarida, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etmoqda. Shu yuzasidan O'zR Prezidetining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 2017 yil 5 iyuldag'i PF-5106-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 martdag'i "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5153-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2017 yildagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-son qarorlari tasdiqlangan.

"Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustaxkam bo'ladi", - degan hayotbaxsh qadriyat va oljanob g'oya jamiyatda chuqurroq anglab yetilishiga va qaror topishiga mamlakatimizda zamin yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, afsuski, jamiyatimizda tarbiyasi og'ir o'smirlar va o'spirinlar bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Bu muammolar yoshlarning o'qish jarayonida va xulqida namoyon bo'ladi. Tarbiyasi og'ir "bolalar - jamiyat tomonidan o'rnatilgan normalarga zid ravishda xatti-harakat qilishadi. Ular beqaror axloqli, irodasi bo'sh, pedagogik ta'sirga doim qarshilik ko'rsatib keluvchi yoshlardir. Kasb-hunar maktab miqyosida ular ko'p uchramaydi. Ammo ular kasb-hunar maktab hayotiga, uning axloqiy muhitiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyasi

og‘ir bolalar o‘quvchilarning kam qismini tashkil etsa ham, ular o‘quv – tarbiyaviy ishlarda barqarorlikka jiddiy to‘sinq bo‘ladilar. Ular kasb-hunar maktabida va undan tashqarida (oilada, ko‘chada, dam olish joylarida va boshqa) tartibsizlikni vujudga keltiruvchilar hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiyasi og‘ir bolalar maktabda, undan keyin kasb-hunar maktabida ham, undan tashqarida ham pedagogik jamoa va keng jamoatchilik e’tiborida turadi.

Globallashuv jarayonining ommaviy madaniyat niqobi ostida kirib kelishi yoshlari o‘rtasida axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, yot g‘oyalar hisobiga boylik orttirish singari hatarli g‘oyalarni vujudga keltirar ekan, bu barchamiz uchun achinarli holdir. Chunki inson hayoti, oila muqaddasligi va yoqlar tarbiyasiga bo‘lgan katta xavf- bu alkogol va tamaki maxsulotlarini singdirishdir. Buning oqibattida yoshlari orasida huquqbazarlik hamda jinoyatchilik holatlari sodir etilayotgani hech birimizga sir emas. Atrofimizda sodir bo‘layotgan hodisalarga xotirjamlik va loqaydlik bilan emas, bal’ki hushyorlik bilan qarash zarur. Birinchi prezidentimiz takidlaganlaridek: "Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘ylisa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qaerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi. Alkogol va tamaki mahsulotlarini sotish bilan bog‘liq masalalar qonun hujjatlari asosida tartibga solingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 2007 yil 16 martdagি PK -605-sonli Qaroriga ko‘ra, alkogolli maxsulotlar bilan savdo qiluvchi savdo shaxobchalari o‘quv, maktabgacha va diniy muassasalardan kamida 500 metr masofada joylashgan hududda savdo qilishlari belgilab qo‘yilgan. Ammo bu holatlarga ayrim tadbirdorlarimiz tomonidan ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yilmokda. Jamiyat taraqqiy etishi bilan unda amal qilayotgan qonunlar yuzaga kelayotgan yangi munosabatlar ta’sirida yangilanib, takomillashib boraveradi. Qonunning mukammalligi uning qay darajada ijro etilayotgani, jamiyat manfaatlariga xizmat qilayotgani bilan belgilanadi. 1998 yilda qabul kilingan “Reklama tug‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Reklama

munosabatlarini tartibga soluvchi ushbu qonun reklamani tayyorlash va tarqatish bilan bog'liq iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi tamaki, tamaki maxsulotlari va alkogolli ichimliklar reklamasini butunlay ta'qiqlash, noqonuniy nosog'lom raqobatdan tadbirkorlarni muhofazalash hamda istemolchilar huquqlarnni himoya qilishga xizmat qiladi. Davlatimiz raxbari tomonidan o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiysi, sog'ligi, tafakkuri, bilim olishi hamda manaviyatiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, o'z sog'ligiga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga mактабгача ta'lim tashkilotlaridan tortib to'oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan maskanlarda chuqr singdirilib, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan "ommaviy madaniyat niqobi ostidagi taxdid va xatarlarning asl mohiyatini teran anglab yetishi uchun barcha mexanizmlar ishga solinmoqda. Yuqorida keltirilgan qonun o'zgarishlari ham ana shu maqsadlarni amalga oshirishga, yoshlarning zararli odatlardan saqlanishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bola qanchalik mustahkam qadriyatlar tizimiga ega bo'lmasin va nima yaxshi-yu, nima yomonligi haqidagi tasavvurlari shakllanmasin, u ushbu bilimlar darajasida qolib ketishi mumkin. Ayrim muammoli vaziyatlarda bola qanday yo'l tutishni bilsa ham, lekin bunga oid harakatlarni amalga oshirish ko'nikmasiga ega bo'lmasligi tabiiy. Shuning uchun oila va tarbiya muassasalarida bolada maqbul harakat uslublarini shakllantirishga katta e'tibor berilishi kerak. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar modellarini o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish bolada chuqr hissiy ko'nikmani shakllantirish va biron to'g'ri harakatni amalda qo'llash imkonini beradi. Agar bola oilada to'g'ri maqsadli qadriyatlarni o'zlashtirgan bo'lsa-da, muammoli vaziyat bilan to'qnash kelganda qanday usulga murojaat etishni bilmasligi, ya'ni uslubiy qadriyatlar tanlovini amalga oshirolmasisligi mumkin. Bunday holda avval qanday harakat qilish maqbul ekanligini bolaga o'rgatish lozim. Har qanday g'oyaviy immunitetning kuchi uning anglanganligidadir. Agar inson o'z g'oyasining asl mohiyatini tushunib yetsa, uni mantiqan isbotlay olsa va har qanday

qarshi savolga asosli javob topa bilsa, bunday shaxs o‘z e’tiqodini himoya qila oladi va yot g‘oyalar ta’siriga berilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama barkamol voyaga yetishi, ularning Vatan istiqbolini o‘z qo‘liga ola biladigan munosib vorislar bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda va ularni zararli odatlardan asrash dolzar masala hisoblanadi. Bunda, birinchi navbatda, ularning ma’naviy kamolotiga katta e’tibor qaratilyapti. Zero, sir emaski, ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini anglab yetishi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun doimo sog‘lom bo‘lishi fidoyilik bilan kurasha olishi imkonini beradi.